

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI

O'.E.Bo'taev

TDIU mustaqil izlanuvchisi

O'zbekistonning innovatsion-investitsion rivojlanish strategiyasida moliya, pul-kredit va valyuta tizimi munosabatlarining iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sirini kuchaytirish hamda makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash masalalari muhim ustuvor yo'nalish sifatida alohida ahamiyatga molik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 dekabrda qabul qilingan PF-229-son "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida kichik biznes sub'ektlari uchun bank xizmatlarining yangi turlari va mahsulotlarini aniqlash hamda ularni keyinchalik respublika banklarida joriy etish maqsadida ilg'or chet el bank faoliyatini o'rganish vazifasi qo'yilganligi ushbu masala bugungi kunda dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Kichik va o'rta biznes korxonalar dunyoda mavjud korxonalarining 90 foizini tashkil etadi. Xalqaro Valyuta fondi va McKinsey & Company xalqaro konsalting kompaniyasi bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha jami rasmiy va norasmiy mikro, kichik va o'rta korxonalar 420-510 milliontani tashkil etishini shundan 365-445 milliontagacha bo'lgan firmalar rivojlangan davlatlarda joylashganligini qayd etishadi. Shu sababdan kichik va o'rta korxonalar global iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular ishga joylashtirishda eng muhim ishtirokchilardir, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ishlarning kata qismini aynan shu soha sub'ektlari yaratadi.

Jahon banki kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qariyb 4,8 mln. AQSh dollariga teng kreditlarni dunyoning 47 davlatida 61 ta loyiha bo'yicha amalga oshirib keldi. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki kichik biznes sub'ektlari dunyo iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Shunga qaramay, kichik va o'rta biznes korxonalari yirik kompaniyalarga qaraganda ko'proq moliyaviy to'siqlarga duch kelmoqdalar - ular tashqi moliyalashtirishdan kamroq foydalanadilar va yuqori tranzaksiya xarajatlari va yuqori riskli sug'urta mukofotlariga duch kelishadi.

Dunyo bo'yicha qariyb 70 foizga yaqin kichik va o'rta biznes sub'ektlari xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtirilmaydi, 15 foizi esa biror bir manba hisobidan umuman moliyalashtirilmaydi.

Banklarning moliyalashtirish xarajatlari pul-kredit siyosatining transmission mexanizmidagi muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank o'zining pul-kredit siyosatini operatsion maqsadlarini saqlab qolish uchun belgilaydi. Pul bozorining kursi turli xil kanallar orqali boshqa foizlarga o'tkazilishi iqtisodiyotda ishlab chiqarish va inflyatsiyaga ta'sir ko'rsatadi.

2024 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar 2023 yilga nisbatan 1,2 barobarga oshib, 19,6 trln. so'mni tashkil etdi. Shundan, 4 trln. so'mni kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan mikro kreditlar tashkil etib, mazkur ko'rsatkich 2023 yilga nisbatan 1,2 barobardan ziyodga oshdi. Bundan tashqari, 2022 yil davomida tijorat banklari tomonidan xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalarini jalb qilish borasida faol ish olib borildi hamda jalb qilingan xorijiy kreditlar hisobidan kichik biznes sub'ektlariga 414,8 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi

a) kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mazkur qarorda qayd etilgan maqsadlarga kredit ajratish uchun tijorat banklariga, jumladan, xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobidan resurslar ajratish;

b) kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat banklari kredit miqdorining 50 foizigacha, ammo 2 mlrd.so'mdan ko'p bo'lmagan yoki unga ekvivalent hajmdagi kreditlari bo'yicha kafil bo'lish;

v) tijorat banklarining qiymati 4 mlrd.so'mdan oshmaydigan miqdordagi kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi ekvivalentda kompensatsiya berish; Valyuta bozorini liberallashtirish: chet el valyutasida daromad oluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo'jaliklariga o'z bank hisobvaraqlaridagi chet el valyutalarini naqd ko'rinishida olish huquqi berildi; yuridik shaxslarga dividendlarini chet el valyutasida to'lash huquqi berildi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan bank mijozlari uchun quyidagi yangi xizmat turlari joriy etildi.

Jumladan: chet elga pul jo'natmalarini amalga oshirishda jismoniy shaxslarning, shu jumladan ularning bank kartalaridagi so'm mablag'larini chet el valyutasiga avtomatik tarzda konvertatsiya qilish; konversion kartalar orqali mehmonxona, aviachipta hamda onlaynmagazindagi xaridlar va boshqa maqsadlarda internet-to'lovlarni amalga oshirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini moliyaviy mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlaridan foydalanish, kichik tadbirkorlik sub'ektlari

faoliyatini kengaytirish, ular miqdoriy va sifat jihatdan oshirishga erishildi. Shuningdek, moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish kelgusida soliqqa tortish ba'zasini kengaytirish ta'minlash bilan bir qatorda, davlat budjetiga tushadigan soliq tushumlarining oshishiga olib keladi. Kichik biznes sub'ektlarining soning oshishi, bandlik muammosini xal etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, kichik biznes sub'ektlarini YaIMdagi ulushini oshiradi, shu bilan birgalikda YaIMdagi kichik biznes sub'ektlari ulushining oshishi YaIMning real qiymatini oshiradi.

Tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlar berish muncha risklilik darajasi yuqoriligi sababli kreditlashda foiz stavkalari ham yuqoridir. Xo'jalik yuritiuvchi sub'ektlar agar xorijiy valyutada kredit olsalar o'zgaruvchan kurslarda agar xorijiy valyutaning kursi oshib ketsa bu daromad miqdoriga katta ta'sir etadi.